



Uzbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi
hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
maktabgacha va
maktab ta'limi tasarrufidagi
maktabgacha ta'lim tashkiloti
katta guruh boshqaruvchisi
ning
“Ilk qadam” davlat o'quv usuli uchun
nashri asosida
“Piyodalar uchun xavfsizlik” mavzusi
mavzusida tashkillangan

FAOLIYAT ISHLANMASI

(Noyabr oyining 3-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*


Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

Katta guruhlarga noyabr oyi 3-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruh: Katta guruhlar uchun

Oy mavzusi: "Transport va xavfsizlik"


Hafta mavzusi: "Piyodalar uchun xavfsizlik qoidalarini"

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarni transport turlari bilan tanishtirish, ularda kasblarga nisbatan qiziqish uyg'otish;

Rivojlantiruvchi: suhbat, o'yin vositasida bolalarning nutqini o'stirish; Tarbiyaviy: jamoada bir-birga yordam ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli vositalar: AKT, turli transport maketlari.



Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, sevimli tarbiyalanuvchilarim. Hozir sizni o'zlarining shaklida o'tirib olamiz va keyin mashg'ulotimizni boshlaymiz. Bugungi kuni bizning faoliyatimizda sizlar bilan suv, havo, yerdagi transport vositalari haqida suhbatlashamiz. Hozir esa mana bu topishmoqqa javob beringlar.

Chorrahada uch chiroq,
Xizmat qilar hammaga.
Bir-bir yonib, bir o'char,
Ish qolmas muammoga.
Xo'sh, bu nima?

Bolalar: - Bu - svetofofor.

Tarbiyachi: - Bilasizlarmi, bolajonlar, yerdagi barcha transport vositalari svetofofor bilan boshqariladi. Poyezd ham yer usti transporti sanaladi, u odam, yuk tashishga mo'ljallangan bo'ladi.

Suv transportiga esa kema, paroxod, qayiqlar kiradi. Ular suvda suzadi. Hozir diqqatingizni monitorga qarating va unda tasvirlangan kemalarni tomosha qiling.

(Monitorda kemalar surati ko'rsatiladi.)

Tarbiyachi: Bolajonlar, kemalar sizga yoqdimi, ular qaysi rang va shaklda ekan?

Bolalar: Bolajonlar, ular och havo rangda va katta shaklda ekan.

Tarbiyachi: Bolajonlar, endi sizlar bilan havo transporti haqida gaplashamiz. Samolyot, vertolyot havo transporti hisoblanadi. Ular odamlar va yuk tashishga mo'ljallangan. Kema hozir monitorni ikki yonga ochib, o'zimizni xuddi samolyotdek tasavvur qilamiz.

Men uchaman, kema uchadi.

Bulutlarni quchaman.

Manzilga tez yetkazib,

Osmonlarda suzaman.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi sizlar bilan havo transporti haqida gaplashamiz. Mana bu topishmoqlarga javob beringlar-chi.

Uch ko'zli qarang,

Yonar rang-barang. **(Svetofofor)**

Cho'zilib yotar narvon,

Undan o'tar uy karvon. **(Poyezd)**

Uzoqlarga uchsa ham,

Talpinib qanot qoqmas.

(Samolyot)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi sizlar bilan so'z o'yini o'ynaymiz. Hozir o'rta so'z aytaman, sizlar o'sha so'zga bog'liq yana boshqa so'z aytishingiz kerak.

Rul - mashina Avtobus - o'rindiq Poyezd - yo'lovchi Kema - suv Yo'l -

svetofofor Osmon - samolyot

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi men sizlarga transport vositalari haqida bir eraytib beraman. Bir kuni hamma transport vositalari bir yerga yig'ilishibdi. Yerdagi havo transportidan samolyot, vertolyot, yer usti transportidan mashinalar, poyezd, avtobus, suv transportidan kema, paroxod bor ekan. Samolyot gerdayib

turar, kichik mashinalarni mensimas, kema esa undan ham kekkayibroq o'zidar kichkina qayiqlarga qarashni ham istamay turarkan. Mashinalar ichidan laset ti,



neksiya esa sparkni “Kichkinaligini qaranglar”, deb uning ustidan kulishibdi Hamma transport vositasi o‘zining chiroyliligi, imkoniyatlari bilan maqtana bosh ladi. Birpasda qiy-chuv bo‘lib ketibdi, mashinalar signalini bip-biplatar, poyezi esa ovozi bilan balandlatar, xullas, hech kim bir-birini eshitmas ekan. Shunda ularni kuzatib jim turgan yuk mashinasi kelibdi-da, “Jim bo‘linglar!” debdi. Yuk mashi- nasining salobati bosibdimi, harqalay, transport vositalari jim bolishibdi. Shunda yuk mashinasi vazmin ohangda gap boshladi:

- Hamkasblar, hammamiz qaysi turga kirishimizdan qat'i nazar, transport vositasi sanalimiz. Bizning vazifamiz odamlarga xizmat ko'rsatishdan iborat. Yo'lovchilarni manziliga eson-omon yetib borsa, vazifamizni bajargan bo'lamiz. Hech qanday maqtanishning chiroyliligi yoki tashqi ko'rinishi bilan maqtanmasin. Buning o'rniga qanday qilib sifatli xizmat ko'rsatsam ekan, deb o'yla- sin. Agar yo'lovchilarni kursant qilsangiz, ularning o'zlari sizni hurmat qiladi va qadrlaydi. Agar yo'lovchilarni qo'rqitib qilaversangiz, unda sizni odamlar yoqtirmay qolishadi. Qani, endi bizni qo'rqitishimizga tarqalaylik, qancha odam manziliga yetolmay bizni izlaydi. Yuk mashinasining bu gapiga keyin hamma transport vositalari indamay tarqalib ketishibdi.

YO'L HARAKAT QOIDALARI

KO'CHA VA YO'LLARDA O'QUVCHILAR O'ZINI QANDAY TUTISHI LOZIM?

- Piyodalarga ajratilgan yo'lakchalarda va maxsus piyodalar yo'lakasida yurishga ruxsat etiladi.
- Shunday joylar bo'lmasa, yo'l chekkasidan yoki velosiped yo'lakasidan harakatlaning.
- O'ng tarafdin, mashinalar yo'nalishi bo'yicha harakatlaning.

OGOH! HARAKAT BELGILARI

AXBOROTLOR

USHBU ENG ASOSIY YETTI QOIDA ESLAB QOLING!

1. YO'LNING QATNOV QISHI-AVTOMOBILLAR UCHUN, YO'LKA PIYODALAR UCHUN! 2. O'NG TOMONDAN YURISHINGIZ KERAK, SHUNGA AMAL QILING! 3. AVVAL AVTOMOBILNI O'TKAZIB YUBORIB KEYIN O'ZINGIZ O'TING! 4. KO'CHANI FAQAT PIYODALAR O'TISH JOYIDAN	5. CHORRAHADAN FAQAT YASHIL CHIRILGAN VA YER OSTI TUNELLARIDAN YONGANDAGINA KESIB O'TING! 6. YO'L BELGILARINI YAXSHI BILIB OLING! 7. HARAKAT XAVFSIZLIGI UCHUN HAM HAYDOVCHILAR, HAM PIYODALAR JAVOBGARLIGINI UNUTMANG!
---	---

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa mana bu savollarga javob beringlar:

Yer usti transportiga nimalar kiradi?

Kema va paroxodni qaysi transport turiga kiritish mumkin?

Havo transportiga nimalar kiradi?

“Spark”, “Neksiya”, “Damas” mashinalari qaysi transport turiga kiradi?



Qurish va konstruksiyalar markazi

Garaj quramiz

Maqsad: bolalar konstruktordan iborat qurilishni, avtoturargoh nima uchun kerakligini, turli xil ranglarni tanlashni o'rganishlari kerak.

Kerakli jihoz va materiallar: konstruktordan iborat.

Faoliyatning borishi:

1. Garaj rasmini kuzatish.
2. Bolalar bilan garaj qurilishini rejalashtirish.
3. Garaj qurish.
4. Qurilgan garajni namoyish qilish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarga o'z ishlarini mashinalar bilan bo'lishi mumkin.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning jamoa bo'lib ishlashiga, avto turargohning xavfsizligiga va ko'p tarmoqliligiga e'tibor qaratiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Avtobus» (yo'lovchi, haydovchi, chiptachi) syujetli-rolli o'yini

Maqsad: bolalar haydovchi va chiptachi ishi haqida tushunchaga ega bo'lishi, yo'l harakati qoidalariga amal qilishi, transport haydovchisiga hurmat bilan qarashlari zarur.

Kerakli jihoz va materiallar: ko'krak nishonlari, svetofof maketi, piyodalar yo'li, yo'l belgilari trafareta.

Faoliyatning borishi:

1. «Haydovchilar», «Avtobusda ketyapmiz» rasmlarini kuzatish.
2. «Avtobus bekati» mavzusidagi rasmlarni kuzatish.
3. «Avtobus» o'yinini o'ynash.
4. O'tkazilgan o'yin bo'yicha suhbat.

Qo'shimcha: o'yin orqali bolalar jamoat transportida to'g'ri yurishni mashq qiladilar.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'yin jarayonida bolalarning birlashishiga, rollarni taqsimlanishiga, yo'l belgilariga, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilishiga ahamiyat beriladi.

Til va nutq markazi

«Transport turlarini bilasizmi?»

Maqsad: bolalar turli transportlarni farqlashi, transportlarni guruhlariga ajratishi, yangi tushunchalarni so'z boyligini va ichki nutqini rivojlantirishi kerak. Hikoya qilish jarayonida bolalarning xavfsizlik, do'stiga yordam berish tuyg'ularini shakllantirish zarur.

Kerakli jihoz va materiallar: transport turlari illyustratsiyasi, taqdimot, bayroqchalar (ko'k, sariq va qizil).



Faoliyatning borishi:

1. Turli xil transport turlari illyustratsiyasini kuzatish.
2. Rasmdagi vaziyatlarni tavsiflash.
3. Transport turlarini farqlash.

Qo'shimcha: o'yin o'tkazish uchun tarbiyachi maket tayyorlashi mumkin. (Qalin karton qog'ozda osmon, suv, yo'l ifodalangan va turli xil transport turi tasvirlangan kartochkalar).

Alohida e'tibor qaratiladi: agar bola to'liq javob bera olmasa, yordamchi so'zlar va savollar bilan yordam berishi transport turlarini farqlashiga ahamiyat beriladi.

Fan va tabiat markazi

Batareykani almashtiramiz

Maqsad: bolalar batareykaning ishlashi va uning qanday ishlashi haqida gapirib beradigan batareykani almashtirish.

Kerakli jihoz va materiallar:

o'yinchoqlar, otvyorkadan batareykalarni olinadigan batareyka.

Faoliyatning borishi:

1. O'yinchoq xususiyatlarini aniqlash.
2. Otvyorkadan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.
3. Batareykalarni to'g'ri joylashtirish.
4. Bajarilgan ishning to'g'riligini tekshirish.

Alohida e'tibor qaratiladi: batareykalarni to'g'ri foydalanish qoidalari (ekologik tarbiya). Hayot xavfsizligi asoslari.

San'at markazi

Rasm: «Mening sevimli mashinam»

Maqsad: bolalar mayda qo'l motorikasini, tasavvuri, mavjud o'stidadagi jihozlar yordamida rasm chizishni, o'zlari chizgan rasmlari haqida gapirib berish kerak.

Kerakli jihoz va materiallar: noan'anaviy rasm chizish uchun materiallar rasmi to'plami, qog'oz, bo'yoq, guash, suv uchun idish. Tabiiy materiallar: qog'oz, quloq tozalagich, paxtali tampon.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
2. Noan'anaviy rasm chizish texnikasi bilan tanishtirish.
3. Mavjud qo'l o'stidagi jihozlar yordamida xomaki mashina rasmini chizish.
4. Bolalar tasavvuri asosida rasmni chizish.
5. Bolalar bilan tayyor rasmlar muhokamasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: mavzu asosida she'r yoki qo'shiq aytib berishni tavsiya qilish, ko'rgazma gashkil qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: gigienik me'yorlarga amal qilish va targibli ishlash tasavvur va mayda qo'l motorikasining ishlashiga ahamiyat berish.

